



2025-yil 14-iyul
01-02-18/4300-son

"MEGA STEEL TRADE PRO" MChJ QKga

2025-yil 10-iyuldagi
488/25-son xatiga

Toshkent viloyati Ohangaron shahri hududida joylashgan "MEGA STEEL TRADE PRO" MChJ QKga tegishli obyektni ishonchliligi bo'yicha elektr ta'minoti toifasi – II toifa, 20 MW quvvatni ulash yuzasidan "Uzatish tizimiga" ulanish talabnomasini ko'rib chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-iyunda 338-son qarori bilan tasdiqlangan **"Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini"** ning III-bo'limi talablariga muvofiq ixtisoslashgan loyiha tashkiloti tomonidan ulanish bo'yicha tadqiqot o'tkazilishi belgilab o'tilgan.

Bunda **"Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini"** ga asosan:

- tarmoqqa ulanish tadqiqoti ixtisoslashgan loyiha tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi;

- tadqiqot so'ralayotgan ulanishni tarmoqning ishonchliligiga ta'sirini, tarmoqqa ulanish uchun texnik yechimlar tahlili, tarmoqqa ulanish nuqtasi infratuzilmasining texnik xarakteristikalarini, Foydalanuvchiga qo'yiladigan texnik talablarni;

- foydalanuvchiga qo'yiladigan ekspluatatsiya talablari, tarmoqqa ulanish infratuzilmasini qurilishi xarajatlarini baholash va boshqalarni o'z ichiga olishi;

- tarmoqqa ulanish tadqiqotini amalga oshiruvchi tarmoq loyiha kompaniyasi barcha zaruriy tahlillarni (*elektr energiyasi oqimlari, xavfsizlik, reaktiv quvvatni boshqarish, qisqa tutashuv toklari, statik va dinamik turg'unlik, elektr energiyasi sifati*) o'tkazishi;

- tarmoqqa ulanish tadqiqotida ulanish bo'yicha taklif etilgan variantlar tasdiqlangan Uzatish tizimini rivojlantirish rejasi bilan uyg'unlashtirilishi;

- loyiha tashkiloti ishlab chiqilgan texnik yechimlarni Uzatish tizimi operatori va Tizim operatoriga kelishish uchun kiritishi;

- podstansiyalar, elektr uzatish tarmoqlari va (yoki) transformatorlarning yuklanish darajasi maksimal qiymatiga yetgan bo'lsa, foydalanuvchi o'z hisobidan transformator yoki elektr uzatish tarmoqlarini o'zgartirish taklifini berishi mumkinligi belgilanganligi eslatib o'tiladi.



A.Nazirov
Boshqaruv raisining
birinchi o'rinbosari

Ijrochi: ETUSh
Telefon: (+99871) 236-61-61